Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320461

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM SHARTLARI

Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich
Toshkent amaliy fanlar universiteti mustaqil tadqiqotchi
Ibragimova Nargiza Ravshan qizi
Shayxotohur tuman politexnikumi, o'qituvchi
e-mail:jtajiddinov@gmail.com

Annotatsiya. Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish. Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish

Kirish. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 12-may kuni "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi. Farmon bilan tegishli strategiya va uni amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi ham tasdiqlandi. Hujjat asosida kelgusidagi 5 yil davomida bank sohasini o'zgartirishning konseptual asoslari, tamoyillari va yo'nalishlari belgilab olindi. Unga ko'ra, bank sohasida o'rta muddatli islohotlarning asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

Moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, bank xizmati ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, shuningdek, banklar faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalarni bosqichma-bosqich bekor qilish orqali bank tizimining samaradorligini oshirish;

Kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash.[10]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAXLILI

Banklar faoliyatini izchil, chuqur va ilmiy asoslangan ravishda uzluksiz tahlil etib borish, ular faoliyatining barqarorligini ta'minlash muhim iqtisodiy masalalardan biri bo'lib qolaveradi va ulkan ahamiyat kasb etadi. Bank faoliyatini tahlil etish uchun bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy jarayonlarni har tomonlama chuqur his etmoq, anglamoq zarur bo'ladi.

Buning uchun esa eng avallo bankning mohiyati, bajaradigan vazifalari, ushbu vazifalarni bajarish asoslari, usullari, xullas, butun bank faoliyatiga tegishli jarayonlarni his etmoq lozim. Bank faoliyatini yuritish uchun lozim bo'lgan mablag'lar va ularning manbalari, o'z mablag'lari hamda majburiyatlari tarkibi, ular o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash masalalari, ushbu mablag'larni samarali yo'naltirish, bankning likvidliligi, to'lov qobiliyatini ta'minlash asoslari kabilar chuqur o'rganilmog'i zarur.

Bank faoliyati tahlili fani banklarda muomaladagi bo'sh mablag'larni o'ziga jalb etish, o'z mablag'larini to'plash va boshqarish, jamlangan passivlarning aktiv operatsiyalarga joylashtirish, aktivlarni boshqarish daromad va xarajatlarni shakllantirish

[10] 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida, PF-5992,12.05.2020 y

Published: 23.12.2024
Cite this article: Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich, Ibragimova Nargiza Ravshan qizi (2024). Bank tizimini rivojlantirishning muhim shartlari. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320461
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

hamda mijozlarga bank xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy jarayonlarni o‘rganadi.

Har qanday tahlil kabi, banklar faoliyati tahlili jarayonida birinchidan, haqiqiy holat o‘rganiladi, ikkinchidan, haqiqiy holat normativ ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi uchinchidan, olingan natijalarga ta’sir etuvchi omillar va ular ta’sirining bank faoliyatiga ta’siri tahlil qilinib faoliyatni yanada takomillashtirish yuzasidan bank boshqaruviga taklifl ar tayyorlanadi.

Shunday ekan, bank boshqaruvi tomonidan bank faoliyati samaradorligini oshirish uchun qabul qilinadigan qarorlari albatta bank faoliyati tahlil natijalariga asos lanadi. Qabul qilingan qarorlarning samarasi faoliyat tahlili natijalarining nechog‘lik to‘g‘riligiga proporsional ravishda bog‘liqdir.

Bank faoliyati tahlilining asoslari quyidagilar hisoblanadi:

• birinchidan, bank balansi ma’lumotlari (1-ilova);

• ikkinchidan, bank daromad va xarajatlari (moliyaviy natijalar) balansi (2-ilova);

• uchinchidan, bank buxgalteriyasi analitik va sintetik hisob raqamlari ma’lumotlari (hisobvaraqlar rejasi 3-ilova);

Bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlardan biri bo‘lib, banklarda kunlik balans hisobotlari tuziladi. Har bir ish kuni oxirida, bankning har bir fi liali tomonidan balans tuziladi va u Respublika Boshqaruvi tomonidan umumlashtiriladi.

Bu holat bank faoliyatini tezkor ravishda tahlil qilib borish imkoniyatini yaratadi.

Bankning daromadlari va xarajatlari balans ma’lumotlariga asosan uning daromadlari manbalari, miqdori, xarajatlarining turlari va hajmi hamda faoliyat samaradorligi tahlil qilinadi.

Bank faoliyatini operativ (tezkor) tahlil qilishda analitik va sintetik hisob raqamlar oboroti va qoldig‘idan foydalanadi. Shunday ekan, 1,2,3-ilovalarda keltirilgan ma’lumotlar bank faoliyatini tahlil qilishning asosini tashkil etadi.[11]

ASOSIY QISM

Farmonda yana islohotlarning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish, bank ishining zamonaviy standartlarini, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklardagi davlat aksiyalari paketini zarur tajriba va bilimga ega bo‘lgan investorlarga tanlov asosida sotish, shuningdek, davlat ulushi mavjud tijorat banklari va korxonalarni bir vaqtning o‘zida isloh qilish orqali bank sektorida davlatning ulushini kamaytirish;

Yetarli darajada xizmat ko‘rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko‘rsatish nuqtalari tarmog‘ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o‘zaro to‘ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligini va sifatini oshirish.

Bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo‘lmagan banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish;

Banklar majburiyatlarining umumiy hajmida banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlari ulushini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish;

[11] T.M.Karaliyev;O.B.Sattorov;I.F.Sayfuddinov; Bank faoliyati taxlili;2016y

2025-yilga kelib davlat ulushi mavjud kamida uchta bank kapitallariga zarur tajriba, bilim va obro‘ga ega kamida uchta strategik xorijiy investorlarni jalb qilish;

Umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlari ulushini joriy 0,35 foizdan 2025-yilga kelib 4 foizgacha oshirish.[12]

Masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatish turli bank operatsiyalarni masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya.

Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko‘ra ikki turga bo‘lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o‘rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta’minlanadi.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlarining turlari:

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo‘lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o‘rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma’lumotlarni saqlaydi (asosan to‘lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o‘rtasida modem orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog‘langan holda real vaqt davomida to‘lovlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o‘z ma’lumotlari (to‘lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko‘chirmalar)ni ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o‘z ish joyida yoki boshqa o‘ziga qulay sharoitda:

to‘lovlarni o‘tkazish;

to‘lov o‘tishi bosqichlarini kuzatish;

barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Internet-banking orqali mijoz o‘z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o‘z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko‘rishi va pul o‘tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo‘ladi.

Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS

[12] 2020-2025 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to’g’risida, PF-5992,12.05.2020 y

ko‘rinishdagi ma’lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag‘idan ma’lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so‘rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

- hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘lar;
- hisobvarag‘idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balansi;
- kun davomida o‘tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma’lumot olish.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o‘tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to‘lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so‘ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag‘idan to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

O‘z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larni tasarruf etish va to‘lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag‘lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo‘yicha imkoniyatlar yaratildi[13]

Banklar tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi o‘sayotganida aks etmoqda.

- Aytish joizki, mijoz mobil banking yordamida bank kartalarining (kredit, debet va hokazo) holatini kuzatish;
- mobil va shahar telefon xizmatlari, internet-provayderlar, kommunal, kabel va raqamli televideniya xizmatlari uchun vositachilik haqlarisiz to‘lovlarni amalga oshirish;
- onlayn konversiya amaliyotlarni o‘tkazish; kartadan kartaga o‘tkazmalarni amalga oshirish;
- operatsiyalarning avtomatik ijrosini sozlash – hisobvaraq bo‘yicha yoki muayyan sanalarda belgilangan to‘lovlar;
- pul mablag‘larining bank hisobvarag‘iga tushganligi haqida ma’lumot olish;
- bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma’lumotnoma olish;
- onlayn do‘konlarda haridlarni amalga oshirish;
- kreditlarni so‘ndirish, omonatlarga mablag‘ qo‘shish;
- kredit olish;
- pul o‘tkazmasini olish-yuborish;
- bank kartasini ochish;
- bank kartasini bloklash va blokdan yechish;
- bank kartasiga omonat bo‘yicha foizlarni kirim qilish;
- bank kartasining amal qilish muddatini uzaytirish;

[13] O’zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. (23.01.2020 y;893-894 betlar)

- mobil ilova orqali turli valyutalarda xalqaro pul o‘tkazmalarini amalga oshirish kabi imkoniyatlarga ega.[14]

Hayotga "raqamlar" va elektron tijoratni joriy etish insoniyat uchun bir qator kamchiliklarni keltirib chiqaradi, ular orasida biz quyidagilarni ro‘yxatga olishimiz mumkin:

1. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muammosi bilan bog‘liq kiber tahdid (qisman firibgarlik muammosi raqamli savodxonlik deb ataladi). Albatta, e-banking xavfsizligi hisobiga tortishuvlarga sabab bo‘lgan mavzu bir martalik parollar yordamida tranzaktsiyalarni tasdiqlashdir trafikni ushlab turish buzg‘unchiga moliyalashtirishga ruxsat bermadi).

2. "Raqamli qullik" (millionlab odamlarning xatti-harakatlarini boshqarish uchun ma'lumotlardan foydalanish). Mamlakatimizda zamonaviy asbob-uskunalardan foydalanish so‘nggi yillarda, yosh avloddan keksalarga qadar ommalashdi. Juniper hisob - kitoblariga ko‘ra, 2021-da, allaqachon 3 milliard er egalari smartfon va kompyuterlarda bank xizmatlaridan foydalanadilar.

3. Mehnat bozorida ishsizlikning o‘sishi, chunki ba'zi kasblar va hatto sanoatning yo‘qolishi xavfi ortadi (masalan, ko‘plab mutaxassislar kelgusi o‘n yil ichida bank tizimining yo‘qolishiga jiddiy ishonadilar).

O‘zbekistonning deyarli barcha banklari o‘z mijozlariga masofadan bank xizmatini (DBO) taklif etadi, bu esa bankdagi hisobni Internet va telefon orqali masofadan boshqarish imkonini beradi. Bu axborot texnologiyalari va uning mahsulotlarini keyinchalik tarqatish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin: elektron kassa do‘konlari,mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi Bots, uchuvchisiz avtomobillar va boshqalar);

4."Raqamli tanaffus", ya'ni raqamli ta'limdagi bo‘shliq, raqamli xizmatlar va mahsulotlarga kirish sharoitida va natijada bir mamlakatda yoki turli mamlakatlarda odamlar farovonligi darajasida farq. Iqtisodiyotda bunday yangi o‘zgarishlardan so‘ng, raqamlashtirish bozorida IT mutaxassislarining kasbining yangi shartlari va diversifikatsiyasi paydo bo‘ladi[15]

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining kredit va depozitlar to‘g‘risida 2022-yil 1-noyabr holatiga ma’lumot[16]

Mlrd so‘m

	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan		Jami depozitlar	shundan	
			Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar		Jismoniy shaxslar	Yuridik shaxslar
Jami		**375 297**	**94 071**	**281 225**	**20 6 519**	**56 188**	**150 331**
Davlat ulushi mavjud banklar		**314 066**	**69 350**	**244 715**	**13 1 856**	**27 875**	**103 981**
	O‘z milliy bank	86 902	8 922	77 980	42 983	7 225	35 758

[14] Internet ma’lumotlari,(markaziy bank)
[15] International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities;Hosted from Hamburg,Germany,(4.05.2022;310-312 betlar)
[16] Internet ma’lumotlari,(markaziy bank)

	O‘z sanoat qurilisbank	4 7 360	4 976	4 2 384	13 414	3 460	9 954
	Agro bank	3 9 564	7 439	3 2 124	11 892	4 318	7 575
	Asaka bank	3 6 168	5 210	3 0 957	13 385	2 488	1 0 897
	Ipoteka-bank	3 2 401	14 955	1 7 446	14 038	2 595	1 1 443
	Xalqbank	2 1 182	9 545	1 1 638	12 973	2 662	1 0 311
	Qishloq qurilishbank	1 9 869	10 245	9 624	8 459	1 423	7 036
	Mikrokredit bank	1 2 617	4 211	8 405	4 551	1 122	3 429
	Turon bank	9 320	1 671	7 649	3 151	1 134	2 017
0	Aloqa bank	8 607	2 140	6 467	6 935	1 438	5 498
1	Poytaxt bank	7 0	36	3 4	74	10	6 4
2	O‘zagro eksportbank	6	0. 5	6	0.5	0. 3	0 .3
Boshqa banklar		**6 1 231**	**24 721**	**3 6 510**	**74 663**	**28 312**	**4 6 351**
3	Kapital bank	1 3 794	8 866	4 929	21 946	10 152	1 1 794
4	Hamkor bank	1 1 206	3 700	7 506	6 290	3 048	3 243
5	Ipak yo‘li bank	8 013	1 119	6 893	6 023	2 187	3 836
6	Orient Finance bank	5 042	1 820	3 223	6 493	1 703	4 790
7	Invest Finance bank	4 495	1 625	2 870	4 948	2 398	2 549
8	Trast bank	3 387	99 8	2 389	5 872	79 4	5 078
9	Davr bank	2 679	1 522	1 157	1 443	41 8	1 025
	Asia	2	69	1	4	1	3

0	Alliance bank	070	7	373	725	541	184
1	Tenge bank	2 006	93 3	1 073	1 353	72 1	6 33
2	KDB Bank O‘zbekiston	1 978	15	1 963	7 292	47 9	6 814
3	Anor bank	1 943	1 805	1 37	2 742	1 617	1 124
4	Tibisi bank	1 200	1 144	5 6	1 213	1 198	1 6
5	Garan t bank	1 047	19 9	8 49	75 7	41 6	3 41
6	Ziraat Bank Uzbekistan	1 011	47	9 64	1 267	59 9	6 68
7	Unive rsal bank	8 02	13 8	6 64	1 518	74 0	7 78
8	Ravn aq-bank	3 69	51	3 18	69 2	28 9	4 02
9	Mada d invest bank	1 67	25	1 42	52	10	4 2
0	Eron Soderot bankining ShB	2 1	19	2	31	2	2 9
1	Apels in bank	0	0	0	4	0. 003	4

HULOSALAR

O‘zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan joy olib bo‘lgan,chunki bizda ko‘p tarmoqlar rivojlanib kelmoqda, tibbiyot, ta’lim, iqtisodiyot, sanoat, tadbirkorliklik faoliayti (ishlab chiqarish,xizmat ko‘rsatish,savdo) bu sohalar uchun moliyaviy resurslarni jalb qilishda moliya tashkilotlarning xizmati katta.

Chet el investitsiyalari brogan sari ko‘payib bormoqda bunga misol qilib xududlarning kengayishi,sanoat zonalarining rivojlanishi,yangi ishlab chiqaradigan korxonalarnng ishga tushushi sanab o‘tsak bo‘ladi.Moliya tashkilotlarida raqamli xizmatlarning joriy qilinganligi ko‘p tadbirkorlarning ishlarini onson qildi.Bu xizmatlardan xozirgi kunda barcha foydalanib kelmoqda. Raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida, PF-5992,12.05.2020 y

2. T.M.Karaliyev;O.B.Sattorov;I.F.Sayfuddinov; Bank faoliyati taxlili;2016y

3.Internet ma’lumotlari,(markaziy bank)

4. International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities;Hosted from Hamburg,Germany,(4.05.2022;310-312 betlar)

5.O‘zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali.(23.01.2020 y; 893-894 betlar)

6.(Farmon 2018) “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

7.(Qaror 2018) “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.

GREEN EMPLOYMENT AND THE BASICS OF ITS DEVELOPMENT

Sotvoldiyev Nurmuhammad Nematjonovich
Chairman of the Board of the Fergana city JSC “GARANT BANK

Abstract: The article examines the scientific foundations of the term "green employment" and the concept related to it. The trends in the increase in green jobs arising from the development of the green economy in Uzbekistan, the indicators of green employment development have been analyzed, and problems have been identified. Scientific proposals and practical recommendations for the development of green employment have been developed.

Keywords: green economy, green employment, green jobs, sustainable development, energy efficiency.

The President of the Republic of Uzbekistan has also set goals and objectives for transitioning to a green economy and transforming the national economy. Specifically, in accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-436 dated December 2, 2022, "On Measures to Enhance the Effectiveness of Reforms Aimed at Transitioning the Republic of Uzbekistan to a 'Green' Economy by 2030," plans have been established for the transition to a "green" economy and the acceleration of "green" growth in the Republic of Uzbekistan by 2030 and an action plan to ensure "green" growth was developed. It is no coincidence that the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-60 of January 28, 2022, "On the Strategy for the Development of New Uzbekistan for 2022-2026," [1] sets the task of forming the financial basis for the transition to a green economy through the creation of a special fund for the development of the "Green" economy and attracting financial resources to the fund [2]. These funds are intended to be used for environmental protection and reducing the negative impact of economic development on nature.

Green employment, that is, the creation of environmentally sound and sustainable jobs, is very important for Uzbekistan. Uzbekistan faces environmental challenges such as water scarcity, air pollution, and climate change. Green employment plays a major role in addressing these challenges and saving resources because the development of environmental activities ensures economic growth. Green employment methods, i.e. renewable energy sources, energy efficiency, and environmental protection, help create new jobs. Uzbekistan has such opportunities, especially in agriculture and renewable energy.

Attracting foreign investment in green economy and employment projects is important for increasing the country's global economic competitiveness. This, in turn, accelerates economic development. The development of human resources and the improvement of the population's environmental knowledge are also important in the activities of green employment. This not only creates jobs, but also increases